XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-174-11-0-K/25 Farg‘ona viloyati

Viloyat hokimligining “Yo‘l sharoitlari yuqori va kichik tezlikda xavfsiz harakatlanishni ta’minlaydigan hollarda, yo‘llarning ayrim qismlari yoki harakatlanish tasmalarida harakatlanish tezligini oshirishga yoki kamaytirishga (tegishli yo‘l belgilari o‘rnatib) ruxsat berish yuzasidan taklifini ko‘rib chiqish togrisida

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning 9-iyul kuni “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari” yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan.

Mazkur yig‘ilishda avtomobil yo‘llarida tirbandliklarning oldini olish maqsadida belgilangan yuqori cheklangan tezlikni o‘zgartirish yuzasidan topshiriqlar berib o‘tilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-sentyabrdagi 38-sonli topshiriqlar bayoni 19-bandida “Tezlik cheklovlarini qayta ko‘rib chiqish mumkin bo‘lgan yo‘l uchastkalari ro‘yxati shakllantirib, Xalq deputatlari mahalliy kengashlariga kiritish” belgilangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari”ning 80-bandi 6-xat boshisida “Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari DYHXX bilan kelishilgan holda, yo‘l sharoitlari yuqori va kichik tezlikda xavfsiz harakatlanishni ta’minlaydigan hollarda, yo‘llarning ayrim qismlari yoki harakatlanish tasmalarida harakatlanish tezligini oshirishga yoki kamaytirishga (tegishli yo‘l belgilari o‘rnatib) ruxsat berish masalasini tasdiqlash uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga kiritadi” deb belgilangan.

Shunga ko‘ra, viloyat hokimligi 2025 yil 16 dekabrdagi 03-7/14377- sonli xat bilan xalq deputatlari viloyat Kengashiga murojaat qilib, viloyat

hududlarining (aholi yashash punktidan tashqari joylarda) ayrim yo‘l uchastkalaridagi mavjud tezlik cheklovlarini qayta ko‘rib chiqishni so‘ragan.

Xususan, viloyatdagi soxa mutaxassislari ekspertlari hamkorligida o‘tkazilgan o‘rganish va tahlillarga ko‘ra, bugungi kunda viloyat hududidan o‘tgan xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo‘llarining aholi yashash punktlaridan tashqari qismlarida tirbandlikning oldini olish maqsadida, yo‘nalishlaridagi yuqori cheklangan harakat tezligini 70 km/soat, shuningdek, ayrim yo‘nalishlarida esa 120 km/soat etib belgilash hamda 3.24 “Yuqori tezlik cheklangan” (70 km/soat, 120 km/soat) yo‘l belgilarini o‘rnatish zaruriyati yuzaga kelgan.

Shunga ko‘ra, viloyat hududidagi (aholi yashash punktidan tashqari joylarda) tezlik cheklovlari qayta ko‘rib chiqiladigan yo‘l uchastkalari ro‘yxati shakllantirilib, mutasaddi va manfaatdor tashkilotlar tomonidan kelishildi (tasdiqlandi).

Mazkur masala xalq deputatlari viloyat Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi tomonidan muhokama qilinib, viloyat Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan.

Viloyat hududlarida yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, yo‘l harakati xavfsizligini nazorat qilish va samaradorligini oshirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 4 sentyabrdagi 38-sonli topshiriqlar bayoni 19-bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimligining viloyat hududlarining (aholi yashash punktidan tashqari joylarda) ayrim yo‘l uchastkalaridagi mavjud tezlik cheklovlarini yo‘l sharoitlarini inobatga olib, qayta ko‘rib chiqish yuzasidan taklifi ma’qullansin.

3. Viloyat hududidagi (aholi yashash punktidan tashqari joylarda) tezlik cheklovlari qayta ko‘rib chiqiladigan yo‘l uchastkalari ro‘yxati mutasaddi va manfaatdor tashkilotlar tomonidan kelishilganligi inobatga olinsin.

4. Mazkur masala xalq deputatlari viloyat Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilganligi va doimiy komissiya majlisida muhokama

qilinib, viloyat Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to‘g‘risidagi qarori asos uchun qabul qilinsin.

5. Viloyat hududlarining (aholi yashash punktidan tashqari joylarda) ayrim yo‘l uchastkalaridagi mavjud tezlik cheklovlarini (tegishli yo‘l belgilari o‘rnatgan holda) qayta belgilashga ruhsat berilsin.

6. Shunga kora, viloyat hududidagi (aholi yashash punktidan tashqari joylarda) yo‘l uchastkalari va ularda qayta belgilanayotgan tezlik cheklovlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Harakat tezligini oshirilayotgan hududlardagi avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati hodisalarini oldini olish maqsadida ko‘cha chiroqlari va yoritgichlar o‘rnatish, yo‘l chiziqlarini yangilash hamda piyodalar o‘tish yo‘laklari (belgilari bilan birga) belgilangan talablar asosida tashkil etilsin.

8. Viloyat IIB YHXB (F.Shayzokov), Avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi (X.Ketmonov) hamda tegishli tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda mazkur qaror bilan tasdiqlangan (belgilangan) yo‘l uchastkalari va ularda qayta belgilanayotgan tezlik cheklovlarini aks ettiruvchi (bildiruvchi) tegishli yo‘l belgilarini amaldagi tartib asosida o‘rnatilishini ta’minlasin hamda natijasi yuzasidan viloyat Kengashiga axborot kiritsin.

9. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i A.Ikramovga mazkur qaror bilan tasdiqlangan (belgilangan) yo‘l uchastkalari va ularda qayta belgilanayotgan tezlik cheklovlarini ko‘rsatuvchi (bildiruvchi) tegishli yo‘l belgilarini o‘z vaqtida va belgilangan tartib asosida o‘rnatilishini nazoratga olish tavsiya etilsin.

10. Viloyat IIB YHXB (F.Shayzokov) Adliya boshqarmasi (A.Omonov) yo‘l uchastkalari va ularda qayta belgilanayotgan tezlik cheklovlari yuzasidan aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borsin.

11. Viloyat IIB YHXB (F.Shayzokov) mazkur qaror bilan tasdiqlangan (belgilangan) yo‘l uchastkalari va ularda qayta belgilanayotgan tezlik cheklovlari yuzasidan aholini xabardor qilish maqsadida, tezlik cheklovlariga kiritilgan o‘zgarishlarning sabab va omillari hamda bu borada kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlarda keng yoritilishini tashkil etsin.

12. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Sulaymonov), viloyat IIB YHXB (F.Shayzokov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda qayta belgilanayotgan tezlik cheklovlarini e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

13. Ushbu Qaror 2026-yilning 1-fevral kunidan kuchga kiradi.

14. Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (Sh.G‘aniyeva) hamda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i A.Ikramov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **X.Komilov**

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-174-11-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

ilova

Viloyat hududidagi (aholi yashash punktidan tashqari joylarda) tezlik cheklovlari qayta ko‘rib chiqilayotgan yo‘l uchastkalari
RO‘YXATI

№	Tezlik cheklovlari qayta ko‘rib chiqilayotgan yo‘l uchastkalari nomi	Amaldagi tezlik cheklovlari		Taklif etilayotgan tezlik cheklovlari	
		Tezlik me’yori	Qabul qilingan me’yoriy hujjat *(nomi, sanasi va raqami)*	Taklif etilayotgan tezlik me’yori	Asos (ya’ni sababi)
TEZLIK CHEKLOVLARINI OSHIRISH BO‘YICHA:					
Farg‘ona shahar					
1	D091 “Farg‘ona shahar aylanma yo‘li”’ avtomobil yo‘lining 0-9 km va 15-22 km qismlari. *(0-km-Satkak MFY, Satkak krug; 9-km-Idg‘or MFY, Farg‘ona xalqaro Aeroporti; 15-km-Farg‘ona shahar IIB YHXB binosi; 22-km-Quvasoy krug.)*	60 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tirbandliklarni oldini olish maqsadida
2	D091d “Beshbola qishlog‘iga” avtomobil yo‘lining 0-4 km qismlari. *(Tennisniy kort-Beshbola MFY temir yo‘l kesishmasi,)*	60 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tirbandliklarni oldini olish maqsadida

№	Tezlik cheklovlari qayta ko‘rib chiqilayotgan yo‘l uchastkalari nomi	Amaldagi tezlik cheklovlari		Taklif etilayotgan tezlik cheklovlari	
		Tezlik me’yori	**Qabul qilingan me’yoriy hujjat** *(nomi, sanasi va raqami)*	**Taklif etilayotgan tezlik me’yori**	**Asos (ya’ni sababi)**
3	D105 “Farg‘ona halqasi” avtomobil yo‘lining 216-218 km qismlari *(Sherdor chorrahasi-Tantana Chorrahasi)*	60 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tirbandliklarni oldini olish maqsadida
4	D105L Farg‘ona xalqaro aeroportiga kirish” avtomobil yo‘lining 0-3 km qismlari *(Tantana chorrahasi-Farg‘ona xalqaro aeroporti)*	60 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tirbandliklarni oldini olish maqsadida
5	40V087 “Jumadon-Beshbola” avtomobil yo‘lining 0-2,4 km qismlari. *(Sherdor chorrahasi - Beshbola MFY temir yo‘l kesishmasi)*	60 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tirbandliklarni oldini olish maqsadida
Buvayda tumani					
6	A-373 “Toshkent-O‘sh” avtomobil yo‘lining 201-235 km qismlari. *(Namangan viloyatidan kirish-Sirdaryo ko‘prigidan-Yangiqadam MFYgacha)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	110 km/soat	Tirbandliklarni oldini olish maqsadida

№	Tezlik cheklovlari qayta ko‘rib chiqilayotgan yo‘l uchastkalari nomi	Amaldagi tezlik cheklovlari		Taklif etilayotgan tezlik cheklovlari	
		Tezlik me’yori	**Qabul qilingan me’yoriy hujjat** *(nomi, sanasi va raqami)*	**Taklif etilayotgan tezlik me’yori**	**Asos (ya’ni sababi)**
Oltiariq tumani					
7	D105 “Farg‘ona halqasi” avtomobil yo‘lining 226-243 km qismlari. *(Satkak aylanma xarakatidan-Qapchug‘ay aylanma xarakatga yetmasdan oldingi namunali uylar oldigacha)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	110 km/soat	Tirbandliklarni oldini olish maqsadida
TEZLIK CHEKLOVLARINI KAMAYTIRISH BO‘YICHA:					
Qo‘shtepa tumani					
1	40V034 “Marg‘ilon temir yo‘l stansiyasi Qumtepa k. - Sohibkor k. - Qushtepa tuman markazi" avtomobil yulining 0-3.8 km qismlari *(Satkak aylanma xarakati-Qumtepa aylanma harakatigacha)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tezlik bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida
Rishton tumani					
2	D093 “Marg‘ilon sh.-Rishton sh.-O‘qchi k.-Karimdevona k.-Tojikiston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo‘lining 42-53 km qismlari *(Rishton TYFDM binosi oldi-Navbaxor MFYgacha)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tezlik bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida
O‘zbekiston tumani					

№	Tezlik cheklovlari qayta ko‘rib chiqilayotgan yo‘l uchastkalari nomi	Amaldagi tezlik cheklovlari		Taklif etilayotgan tezlik cheklovlari	
		Tezlik me’yori	**Qabul qilingan me’yoriy hujjat** *(nomi, sanasi va raqami)*	**Taklif etilayotgan tezlik me’yori**	**Asos (ya’ni sababi)**
3	D093 “Marg‘ilon sh.-Rishton sh.-Ukchi k-Karimdevona k.-Tojikiston Respublikasi chegarasi” avtomobil yulining 54-61 km qismlari *(Navbaxor MFYdan-O‘qchi MFY hududigacha)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tezlik bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida
Furqat tumani					
4	A-376 "Qo‘qon-Jizzax" avtomobil yulining 5-6 km qismlari *(Ingichka MFY hududi)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tezlik bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida
Beshariq tumani					
5	A-376 "Qo‘qon-Jizzax" avtomobil yulining 26-29 km qismlari *(Gambay MFY xududidan-Yangiqishloq MFY hududigacha)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tezlik bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida
Quvasoy shahri					
7	D089 “Farg‘ona-Quvasoy- Qizilqiya” avtomobil yulining 15-18 km qismlari *(Chek qishlog‘i qabristondan-Mirzalar qishlog‘igacha)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tezlik bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida
Bag‘dod tumani					

№	Tezlik cheklovlari qayta ko‘rib chiqilayotgan yo‘l uchastkalari nomi	Amaldagi tezlik cheklovlari		Taklif etilayotgan tezlik cheklovlari	
		Tezlik me’yori	**Qabul qilingan me’yoriy hujjat** *(nomi, sanasi va raqami)*	**Taklif etilayotgan tezlik me’yori**	**Asos (ya’ni sababi)**
8	40V-044 "Dasht Kenagas Otxona" avtomobil yulining 7-13 km qismlari *(Bog‘dod tuman prokuratura chorrahasi- Guliston MFYgacha yangi domlar)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tezlik bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida
Dang‘ara tumani					
9	A-373b "Qo‘qon shahriga " avtomobil yulining 10-16 km va 21-22 km qismlari *(Chag‘ali postdan-Kichik turk MFY gacha, Chinobod MFY hududi)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tezlik bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida
Quva tumani					
10	D105 “Farg‘ona halqasi” avtomobil yulining 196-200 km qismlari *(Turk MFY xududi)*	100 km/soat	O‘z.R.VM ning 12.04.2022 yil kungi 172-son qarori	70 km/soat	Tezlik bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida